



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил, 1 -2 апрель

Бухоро - 2021

Илмий анжуманнинг дастурий қўмитаси

- | | | |
|---------------|---|--|
| О. Х.Хамидов | – | Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис. |
| О.С.Қаҳҳоров | – | илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Ў.У. Рашидов | – | молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо. |
| Ю.А. Пўлотова | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб. |

Илмий анжуманнинг ташкилий қўмитаси

- | | | |
|----------------|---|--|
| О.С.Қаҳҳоров | – | Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини. |
| Г.Т. Зарипов | – | ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо. |
| Ф.М.Қосимов | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Ғ.М.Сайфуллаев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Н.Б.Адизова | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо. |
| Р.А.Қўлдошев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо. |
| Р.Х.Жумаев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо. |

Тўшлам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 мартдаги 78-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2021 йилда халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2021 йил 1 апрель куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида **“Бошланғич таълимга рақамли технологияларни татбиқ этишнинг замонавий тенденциялари ва ривожланиш омиллари”** мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

Масъул муҳаррир:

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

Такризчилар:

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор

Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

texnologiyasi, sinf jamoasini differensiallash texnologiyasi, ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash texnologiyasi, hamkorlikdo'qitish texnologiyasi va boshqalar.

Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasida maktablarning moddiy-texnik bazasining yaxshilanishiga, elektron ta'lim joriy qilinishiga erishilmoqda. Bu esa ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalarning joriy qilinishi, ko'plab elektron resurslarning yaratilishi natijasida o'quvchilarning bilim olish imkoniyati bir necha marotaba oshdi. Bolalar endilikda ortiqcha vaqt va kuch sarflamay ma'lumotlarni Internet tarmog'idan va elektron resurslardan o'zi izlab topishi, qayta ishlashi mumkin.

Elektron ta'lim - Internet texnologiyalari, elektron kutubxonalar, o'quv metodik multimedia materiallardan foydalanishni o'z ichiga olgan ta'lim tizimi. Elektron ta'lim tizimi o'qituvchi va o'quvchi uchun birdek qulay tizim bo'lib, foydalanuvchining o'z ustida ishlashi, o'zini tekshirishi uchun qulay tizimdir [2].

Bolalarda fonetik, orfografik, leksik kompetensiyalarni takomillashtirishda imlo, izohli lug'atlardan foydalanish eng qulay va samarali usuldir. Ona tili ta'limida lug'atlardan foydalanish o'quvchilarning imlo savodxonligini oshiradi, nutqini yangi leksikalar bilan boyitib boradi. So'nggi yillarda o'rganuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida elektron lug'atlar ham yaratilmoqda.

Elektron lug'at – qattiq diskda saqlanadigan yoki Internet tarmog'ida joylashtirilgan maxsus tayyorlangan lug'at. Elektron lug'atlarning afzalligi shundaki, u qulay qidiruv tizimi va katta hajmga ega [2]. Elektron lug'atlar foydalanish uchun juda qulay bo'lib, u o'quvchilarda orfografik, leksik kompetensiyalarni takomillashtirishda yaqindan yordam beradi. Bundan tashqari o'quvchilar elektron lug'atlardan istalgan paytda mustaqil foydalanishlari mumkin. O'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda turli xil topshiriqlarni bajarishlari, o'zlarini tekshirib ko'rishlari mumkin.

O'quvchilarni elektron lug'atlardan foydalanishga o'rgatish uchun ularda dastlab lug'at bilan ishlash malakalarini shakllantirish, kompyuter savodxonligini o'rgatish lozim bo'ladi.

Elektron ta'limning yana bir ko'rinishi kompyuter multimedia taqdimotidir. Kompyuter multimedia taqdimoti Power Point kompyuter dasturi yordamida yaratilgan maxsus o'quv multimedia materiallari bo'lib, uning yordamida o'quvchilar bilan interfaol muloqot ta'minlanadi [2]. Shunga ko'ra mulimedianing uchta turini farqlash mumkin.

Ona tili darslarida tillarni o'qitish uchun yaratilgan maxsus kompyuter o'quv kurslaridan foydalanish mumkin. Bunda talaffuzni yaxshilash uchun mashqlar, leksik va grammatik xususiyatdagi yozma vazifalar, turli xil so'z o'yinlari mavjud. Bunday multimedia vositalar o'quvchilarning fonetik, leksik, grammatik kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilish, turli xilo'quv vositalarini yaratish, bolalarning o'zbek tilini har tomonlama chuqur o'rganishlariga xizmat qiladi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda elektron ta'lim resurslaridan o'rinni foydalanish o'quvchilarning lingvistik kompetentligini oshiradi, ularning imloviy savodxonligi bilan bir qatorda kompyuter va internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6084 Farmoni. 2020-yil 20-oktabr.

2. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: “Издательство ИКАР”, 2009. – 448 с.

3. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Yo'ldosheva Sh. Ona tili (3-sinf darsligi). –T.: “O'qituvchi”, 2019. -152 bet.

4. Ikromova R.,G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf darsligi). – T.: “O'qituvchi”, 2020. -160 bet.

5. G'afforova T., Shodmonov E.,G'ulomova X. Ona tili (1-sinf darsligi). –T.: “Sharq”, 2019. -112 bet.

6. U mumiyo'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. –T., 2017. -240 bet.

ONA TILI DARSLIKLARIDAGI DIDAKTIK MATERIALLARNI YARATISH VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH

**R. X. Jumayev, BuxDU o'qituvchisi
Sh.T.Elmurodova, BuxDU talabasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi didaktik materiallarni yaratish va ularni takomillashtirish haqida so'z yuritilgan.

Kalit soʻzlar: darslik, lisoniy tushuncha, nutq, lingvodidaktik, Davlat taʼlim standarti, oʻquv dasturi, tarbiyai, lisoniy tushuncha, didaktika.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы создания и совершенствования дидактических материалов в учебниках родного языка для начальной школы.

Ключевые слова: учебник, лингвистическая концепция, речь, лингводидактика, Государственный образовательный стандарт, учебная программа, воспитание, лингвистическая концепция, дидактика.

Abstract. The article discusses the issues of creating and improving didactic materials in textbooks of the native language for primary school.

Key words: textbook, linguistic concept, speech, linguodidactics, State educational standard, curriculum, education, linguistic concept, didactics.

Boshlangʻich taʼlim jarayonini samarali tashkil etish, oʻquvchilarning bilish faolligini oshirish bevosita foydalaniladigan didaktik materiallar mazmuni va tuzilishiga bogʻliq.

V.V.Kraevskiy “didaktik material” tushunchasini nazariy jihatdan tahlil qilishga alohida ahamiyat qaratadi. U didaktik materialni maʼlumot mazmunining eng soʻnggi darajasi, didaktik loyihalashning eng keyingi bosqichi sifatida sharhlaydi, xususan, “Didaktik material oʻquv kursining (bu yerda oʻquv predmeti koʻzda tutilgan) elementi boʻlib, taʼlimni loyihalash faoliyatining vositasi va tarkibiy qismi funksiyalarini bajaradi”.


V.V.Krayevskiyning yozishicha, didaktik material oʻquv kursining tarkibiy qismi boʻlib, unda pedagogik faoliyatning meʼyoriy sohasi aks etadi. Didaktik material oʻqitish faoliyatining ikki xil nuqtayi nazarini yoritib, ikki xil ish bajaradi: taʼlim vositasi; oʻqitish faoliyati loyihasi.

Didaktik materiallar - bu biror bir koʻrinishda ifodalangan bilimni taqdim qilishdir. Umumiy qilib didaktik materiallar deganda, bilish jarayonida pedagogik jihatdan ishlov berilgan va tizimga solingan maqsadli vazifalar toʻplamini tushunish mumkin.

Boshlangʻich taʼlimga oid **didaktik materialning** taʼlim jarayoniga qadar boʻlgan holati **darslik** muallifining pedagogik layoqatiga, uning taʼlim jarayoni mohiyatini bilishiga, maʼlumot mazmuniga pedagogik ishlov berish va didaktik loyihalash sohasidagi mahoratiga bogʻliq.

Boshlangʻich taʼlimga taalluqli didaktik materialning **ikkilamchi loyihalari** dars loyihasi, koʻrgazmali qurollar (tabiiy materiallar, illyustratsiya, chizma, audio va video materiallar), oʻquv topshiriqlari tizimi (test topshiriqlar, oʻyin topshiriqlari, tarqatma materiallar toʻplamlari)dan iborat boʻlib, ularga pedagogik jihatdan ishlov berilib, darslikdagi mavjud holatdan yangi holatga oʻtkaziladi.

Didaktik materiallar tuzilmasini biz quyidagi sxema boʻyicha ifodaladik:



Boshlangʻich taʼlim didaktik materialini umumlashtirish, umumiy qoida va qonuniyatlarga koʻra alohida misol, topshiriqlar asosida oydinlashtirish mualliflarning tajriba va mahoratlariga bogʻliq.

Boshlang'ich ta'lim darsliklarining pedagogik ishlov berilgan eng kichik qismi didaktik material hisoblanadi. Didaktik material o'quvchilarga mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kitoblar va boshqa materiallarda, o'qituvchiga yordam beradigan metodik tavsiyalarda yoritiladi.

Bizningcha, didaktik materiallar muayyan o'quv fani mazmunini yorituvchi va maqsadini ifodalovchi, o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun moslashtirilgan bilimlar tizimidan iborat.

O'quv materiallari axborot manbasi bo'lib, boshlang'ich ta'lim jarayonini loyihalashda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishi uchun "moslashtiriladi".

Boshlang'ich ta'lim o'quv materiallari o'qituvchining shaxsiy yondashuviga muvofiq loyihalandi va mazkur loyiha asosida o'rganiladigan mavzular o'quvchilarga ma'lum ketma-ketlikda uzatiladi.

Didaktik materiallarni loyihalash uni o'rganish va mustahkamlash, takrorlash va amaliyotga tadbqiq qilish, umumlashtirish va nazorat qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib ta'lim jarayonining samaradorligini taminlaydi.

So'nggi yillarda hamdo'stlik mamalakatlari olimlari bilan bir qatorda o'zbek olimlari ham darsliklar va o'quv materiallari yaratish muammosini tadbqiq etishga alohida e'tibor qarata boshladilar. Chunonchi, D.Shodiyev, R.Safarova, va M.Rixsiyevlar tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarini tekshirish va baholash mezonlar, maktab darsliklarining yangi avlodiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish borasida amaliy harakatlar olib borilgan bo'lsa, M.Maxmudov ta'limni didaktik loyihalash tamoyillari, o'quv materiali va uning turli shakllarini loyihalash muammosini tadbqiq etishga oid ilmiy tadbqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflar tomonidan didaktik materiallarni takomillashtirishning umumiy jihatlari borasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan qarashlar ilgari surilgan bo'lsada, ayni vaqtga qadar boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari bo'yicha yaratilgan darsliklar didaktik materiallarini takomillashtirishning didaktik jihatlari tadbqiq etilmagan.

Boshlang'ich ta'lim darsliklarida o'z ifodasini topgan didaktik materialning asosiy hajmini DTS va o'quv dasturlarida belgilangan me'yoriy bilimlar egallaydi.

Boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi didaktik materiallarni takomillashtirishning samarali usullarini ishlab chiqish, uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, darslik hamda o'quv materiali orasidagi muvofiqlikni ta'minlashga jiddiy e'tibor berish, ular orasidagi uzviylikni ta'minlash, shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish zarur.

Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar va boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ayni paytda DTS asosidagi o'quv dasturlarini takomillashtirish, ulardagi o'quv materiallari uchun belgilanayotgan yuklamani o'rganib chiqish asosida darsliklardagi ortiqcha takrorlashlarni bartaraf etish hamda muqobil va raqobatbardosh darsliklarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, yagona o'quv darsligi asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish o'quvchilar, xususan, materiallarni o'rta va past darajada o'zlashtiradigan o'quvchilar uchun jiddiy qiyinchilik tug'diradi. O'quvchini mustaqil bilim olish malakalar bilan qurollantirish zaruriyati o'quv materiallarini didaktik jihatdan maxsus ravishda qayta ishlashni taqozo qiladi.

Darslikning didaktik tizimi vazifalari qat'iy belgilab berilmaydi, u o'zgaruvchan, harakatchan bo'lib, ta'lim jarayonining dolzarbligi shuningdek, ta'lim turi, didaktik konstepsiya va o'quv fani mazmuniga muvofiq tanlanadi. Darsliklarning funksional yuklamasini kamaytirish uning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishni talab etadi.

D.D.Zuyev maktab darsliklarini tarkibiy tuzilishi xususida fikr yuritir ekan, uning tarkibiy elementlari quyidagilar ekanligiga alohida urg'u beradi:

1. Matnlar: a) asosiy; b) qo'shimcha; s) ilova.

2. Matndan tashqari qismlar: a) o'zlashtirish apparatini tashkil etish; b) tasvirlar; s) yo'naltiruvchi apparat.

Muallifning fikricha, darsliklarning tarkibiy qismlari bir-biriga o'zaro muvofiq holda tanlanadi.

V.G.Beylinson o'z izlanishlarida darsliklar o'quv materiallarini loyihalash masalasini tadbqiq etar ekan, unda yo'naltiruvchi apparatning alohida o'rin tutishi borasida so'z yuritadi. Muallifning fikricha, yo'naltiruvchi apparat quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: 1) kirish; 2) mundarija, 3) boblarga ajratish; 4) shartli belgilar; 5) ko'rsatkichlar; 6) bibliografiya; 7) kolontitul (sahifa tepasidagi mavzu nomi).

O'quvchilarni darsliklar bilan mustaqil ishlashga yo'naltirishda va didaktik materialni talab darajasida o'zlashtirishlarini ta'minlashda yo'naltiruvchi apparatning tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan materiallar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

V.V.Davidov o'quv materialini tashkil etgan tushunchalar tizimini shakllantirish jarayoniga nisbatan quyidagi mantiqiy- psixologik talablarni qo'yadi:

- muayyan o'quv fani yoki uning asosiy bo'limlari tarkibiy tuzilishi bilan bog'liq tushunchalarning o'quvchilar tomonidan ularni keltirib chiqaruvchi moddiy sharoitlar mohiyatini tahlil etish yo'li bilan o'zlashtirilishi lozim;

- umumiy va mavhum bo'lgan tushunchalarni o'zlashtirish alohida va aniq tushunchalar bilan tanishishdan avval amalga oshirilishi kerak;

- u yoki bu tushunchaning moddiy manbalarni o'rganishda o'quvchilar mazkur tushunchaning obyekti, mazmuni va tarkibiy tuzilishini belgilab beruvchi genetik, boshlang'ich hamda umumiy bog'lanishlarni topa olishlari zarur;

- mazkur aloqalar predmet-grafikli yoki belgili modellar vositasida amalga oshiriladi;

- o'quvchilar shunday predmetli harakatni vujudga keltirishlari kerakki, uning vositasida o'quv materiallarida o'z aksini topgan obyekt mohiyatini yorituvchi muhim aloqalarni aniqlash va xossalarini o'rganishi zarur;

- o'quvchilar predmetli harakatlarni bajarishdan asta-sekin aqliy faoliyatni bajarishga kirishishlari lozim.

Demak, o'quvchilar boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi o'quv materiallari asosini tashkil etgan tushunchalarni ma'lum ketma-ketlik va izchillikda o'zlashtirishlari, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni modellarda aks ettira olishlari ular tomonidan fan asoslarini chuqur egallashlari uchun sharoit yaratadi. Darsliklarida ushbu faoliyatni amalga oshirishga doir mashqlar o'z ifodasini topishi zarur. Ta'lim berish jarayoni intellektual faoliyat va mantiqiy munosabatlarning yuzaga kelishiga to'la zamin yaratmaydi. O'zlashtirilayotgan material o'quvchi uchun shaxsiy ma'no kasb etadi. Ya'ni, ta'lim bir xil sharoitda berilsada, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish turlicha bo'lishi mumkin. Shunga qaramay tadqiqot qilish maqsadida o'quv materialini loyihalashda ushbu muammoni hal etish va ta'lim berishning qulay usullarini qo'llash ijobiy natijalar beradi.

Didaktikaning psixologik xususiyati, o'quv materialining tarkibiy tuzilishini didaktik jihatdan tahlil qilish asosida yoritib beriladi. Bunday tahlil natijasida o'quvchilarda bilim olishga nisbatan qiziqish yuzaga keladi, shu bois o'quv materialining tuzilishiga alohida e'tibor berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashrapova T., Odilova M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, "O'qituvchi", 1984.-B.236.

2.Ahmedova N. Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish usullari. (Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari). -Toshkent, "O'qituvchi", 1999.-B.128.

3. Boshlang'ich ta'lim. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi axborotnomasi 7-maxsus son. - Toshkent: "Sharq", 1999. -B. 479.

4. Fuzayilov S., Xudoyberganova M. - Ona tili 3-sinf darslik, 5-nashri. - Toshkent: "O'qituvchi", 2019. -B 160.

TAQQOSLASHGA DOIR TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI

M.M.Qosimova, BuxDU katta o'qituvchisi

F.F.Qosimov, BuxDU tayanch doktoranti

Bunday turdagi ijodiy topshiriqlar boshlang'ich sinf matematika darsliklarida ko'plab uchraydi. Bunday topshiriqlarni tuzilishi va mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Tenglik, tengsizliklar to'g'ri bo'lishi uchun sonlarni to'g'ri topishga doir topshiriqlar.

2. Tenglik, tengsizliklar to'g'ri bo'lishi uchun amal ishoralarini to'g'ri topishga doir topshiriqlar.

3. Tenglik, tengsizliklar to'g'ri bo'lishi uchun qavslarni to'g'ri qo'yishga doir topshiriqlar.

4. Son, ifodalarni taqqoslashga doir topshiriqlar.

5. Tenglik, tengsizliklar to'g'ri bo'lishi uchun sonlar, amal ishoralari, qavslarni to'g'ri tanlashga doir topshiriqlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi «darchali» misol-topshiriqlarni bajarar ekan, ular «darcha» o'rniga son yoki amal ishoralarni ongli tanlab qo'yib, topshiriqning yechimini izlaydi. Bunday topshiriqlar ham o'quvchi tafakkurining o'sishiga katta hissa qo'shadi. Chunki o'quvchi, o'rinli son yoki amalni o'ylab, fikrlab, tenglik yoki tengsizlikka qo'yib, tegishli xulosa chiqaradi. Bu bilan o'quvchi mantiqiy tafakkurni ishga soladi. Shu jihatdan ko'pchilik o'quvchilar bunday topshiriqlarni qiziqish bilan bajaradilar.

Boshlang'ich sinf matematika darsliklari mualliflari tenglik, tengsizliklar to'g'ri bo'lishi uchun sonlarni to'g'ri tanlashga doir topshiriqlarni turlicha ifodalashga harakat qilishgan. «Bo'sh katakni to'ldiring!», «Kerakli sonlarni qo'ying!», ««Darchalar»ni to'ldiring», «Tushirib qoldirilgan sonlarni

МУНДАРИЖА

Обиджон Хамидов. Рақамли технологияларни таълим жараёнига татбиқ этишининг устувор вазибалари	3
Отабек Қаҳҳоров. Рақамли иқтисодиёт тараққиёт омили сифатида	4
Қаҳрамон Тўхсанов. Таълим беришда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти.....	5

I ШЎЪБА. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Б.Адилов. Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истиқболлари	8
Ш. Ш. Олимов. Бошланғич таълимни табақалаштиришнинг муҳим омиллари.....	11
А.Р. Ҳамроев. Масофавий таълим соҳасида рақамли технологиялардан фойдаланиш имкониятлари.....	15
Чемезов Сергей Александрович, Сахновская Елена Геннадьевна, Алмазова Юлдуз Исмаевна. Цифровые ресурсы для педагогов начальной школы.....	17
З.Л. Умуров. Таълимни рақамлаштириш шароитида педагогларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш педагогикаси фани асослари	19
U.A. Masharipova. Boshlang'ich ta'limga raqamli ta'lim texnologiyalarni joriy etish davr talabi.....	22
G'.M.Sayfullayev, L.X.Alimova, I.S. Temirova, S.Sh. Namozova. 4-sinfrda markaziy osiyolik allomalarning tabiat.....	24
Умуров Зариф Латифбоевич. Таълимни рақамлаштириш шароитида ўқув-билув муаммоларини таълим жараёнига татбиқ қилишнинг шарт-шароитлари.....	26
G'.M. Sayfullayev, G.F.Yodgorova, F.O'. Yodgorov. Boshlang'ich sinf "atrofimizdagi olam" darslarida o'qitishning raqamli texnologiyalaridan foydalanish.....	28
G'.M. Sayfullayev, L.X.Alimova, D.O.Hamroyeva. Tabiatshunoslikni o'qitishda foydalaniladigan raqamli texnologiyalar.....	30
m.m.nigmatova. raqamli o'yinlar bolalarni o'qitish usuli sifatida	32
M. J. Yarashov, X. I. Hamdamova. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni	34
M. J. Yarashov, F. B. Barotova. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning tadbiq etish metodikasi	36
M.J.Yarashov, M.T.Axmedova. BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA TA'LIMNI Raqamli texnologiyalar orqali ijodiy tashkil etish jarayoni.....	38

II ШЎЪБА. БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ БАҲОЛАШНИНГ ХАЛҚАРО ТИЗИМИ

М. М. Юлдашева, Бафаева Дилдора. Обучение учащихся анализу художественных произведений в начальных классах на основе заданий PIRLS	40
B.T.Jurayev, Z.Qamarova. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash tamoyillari	43
Doniyorova Nodira, Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich. Husnixat darslarida xalqaro tadqiqot baholash tizimi-pirls matnlarini qo'llashning ahamiyati.....	45
Б. Мустафоев. Бошланғич синф ўқувчиларида мусиқий саводхонликни шакллантириш жараёнида мантиқий фикрлаш ва баҳолашга ўргатиш	47

III ШЎЪБА. ДАРСЛИКЛАРНИ ЯРАТИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ҚИЛИШ

Мишанова А. И. ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ	49
R. X. Jumayev. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIKLARINING AFZALLIKLARI.....	50
O'. M. Olloqova. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI.....	53
R. X. Jumayev, Sh.T.Elmuurodova. ONA TILI DARSLIKLARIDAGI DIDAKTIK MATERIALLARNI YARATISH VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH	55
M.M.Qosimova, F.F.Qosimov. TAQQOSLASHGA DOIR TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI	58
М.А. Жумаева. ПЕДАГОГИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚИТУВЧИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ.....	60

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Адади 100 нусха. Ҳажми 488 бет. Буюртма 87. 2021.

Бухоро шаҳри, М.Иқбол кўчаси, 11.